

BANK XIZMATI REGLAMENTI

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

“Asaka” bankning korporativ mijozlari hodimlari uchun iste'mol krediti.

1.2. Xizmat natijasi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlarni (xizmatlar) sotib olish uchun iste'mol krediti.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish joyi

“Asaka” banki

1.4. Qonuniy asos

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi;
- "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun;
- "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun;
- "Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonun;
- “Asaka” bank Kredit siyosati hamda boshqa me'yoriy hujjatlar.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Voyaga yetgan, muomalaga layoqatli, doimiy ro'yxatga (propiskaga) ega, shuningdek doimiy ishi va o'z faoliyatidan daromadga ega bo'lgan fuqarolar.

1.6. So'rov yuborish muddati

Muddat o'rnatilmagan.

1.7. Bajarish muddatlari

Mijozlar tomonidan kredit olish uchun kerakli hujjatlar to'liq taqdim etilganidan so'ng bank tomonidan 5 ish kuni davomida ko'rib chiqilib, Kredit qo'mitasi tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi.

1.8. Tasdiqlash muddati

5 ish kuni mobaynida.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni xabardor etish

2.1. Ma'lumotning xajmi va tarkibi

Murojaat qilgan har qanday shaxsga qo'yidagi ma'lumotlarni taqdim etish kafolatlanadi:

- bankning Bosh ofisi hamda hududiy filiallari manzili, ish vaqti, qabul qilish kunlari;
- xizmatdan foydalanish uchun kerakli bo'lgan hujjatlar ro'yxati;

- xizmatdan foydalanish tartiblari;
- xizmatni ko'rsatish muddatlari.

2.2. Keng xabardor etish

Batafsil ma'lumotlarni mijozlar bank xodimlaridan, hamda bankning www.asakabank.uz veb-saytidan olishlari mumkin.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor etish

5 ish kuni ichida.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida xabardor etish

Bankning Bosh ofisi va hududiy filiallari manzillari bankning www.asakabank.uz saytida keltirilgan.

2.5. Foydalaniladigan xujjat blankalari (formalari)

Foydalaniladigan hujjat blankalarini bankning hududiy filiallari va bankning veb-saytidan olish mumkin.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Bank ish kunlari soat 9-00 dan 16-00 gacha

3.2. Kutish tartibi

Ish kunlari soat 9-00 dan 14-00 gacha va 15-00 dan 16-00 gacha qabul qilinadi.

4. Xizmat ko'rsatish jarayonlari

4.1. Kerakli xujjatlar

Mijozlar barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni bankning hududiy filiallari va bankning veb-saytidan olishlari mumkin.

4.2. Xizmat narxi

Bank bilan mijoz o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

4.3. Davlat xizmatini ko'rsatish bosqichlari

1. Mijoz kredit ajratishni so'rab o'zlari istiqomat qiladigan joydagi bank filialiga ariza orqali murojaat qiladi;
2. Bank kredit bo'limi xodimi mijozni kredit olish tartibi va shartlari yuzasidan tanishtiradi;
3. Barcha hujjatlar qonunchilik talablari asosida rasmiylashtirilganidan so'ng, filial Kredit qo'mitasining ijobiy qaroriga asosan bank bilan mijoz o'rtasida kredit

shartnomasi tuziladi.

4.4. Davlat xizmatini ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

1. Mijozni kredit olish uchun taqdim etilgan arizasini ko'rib chiqish;
2. Arizaga ilova tarzda taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish va tekshirib chiqish;
3. Mijozga kredit ajratish bo'yicha Kredit bo'limining hulosasini tayyorlash va Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritish;
4. Mijozga kredit ajratish bo'yicha filial Kredit qo'mitasining qarorini qabul qilish.

4.5. Rad etish asoslari

Quyidagi holatlarda mijozlarga xizmat ko'rsatish rad etiladi:

- hujjatlarning o'rnatilgan talablarga javob bermasligi (hujjatlarning to'liq emasligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi);
- taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqiqiy emasligi;
- mijozning ijobiy kredit tarixga ega bo'lmasligi;
- hujjatlardagi ma'lumotlar bir-biriga zidligi;
- taqdim etilgan ta'minotning nolikvidligi.

5. Sifatini ta'minlash

5.1. Sifat ko'rsatkichlari

Xizmatlar amaldagi qonun hujjatlariga asosan ko'rsatiladi.

5.2. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatga shikoyat bildirish

Bank filialiga murojaat qilgan mijozlar sifatsiz ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun bankning Bosh ofisi yoki Markaziy bankning "Ishonch" telefonlariga hamda yozma ravishda qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.